

MEDIA MUHITDA BOLA HUQUQLARI

Andijon Davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Vohidov Sardorbek Bahodir o'g'li

Fizika va astronomiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

O'rmonova Dilfuzaxon Hakimjon qizi

Annotatsiya: Bugungi kunda axborot olamida internet, elektron pochta, onlin video kabi ko'plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ularning auditoriyasi va ta'sir doirasi tobora kengayib borayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bunday axborot vositalariga asosan yoshlar juda katta qiziqish bilan qarashi va undan foydalanishini hisobga olsak, haqiqatdan ham, bu masalaning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanligini anglashimiz qiyin emas, ushbu maqola orqali internetdan foydalanayotgan insonlarga media muhitda bolalarning qanday huquqlari borligi va Media ta'lim haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Axborot, media ta'lim, bola huquqlari, savodxonlik.

Kirish: Bizga ma'lumki media-ta'lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi. Media-ta'lim bu media mahsulotlari bilan: muloqot madaniyatini kommunikativ imkoniyatlari tanqidiy tafakkuri media matnini to'liq qabul qilish; intepritatsiya etish; tahlil qilish hamda baholashdan iborat. Media-savodxonlik insonga ekranli san'atni: televideniye; radio; video; kinomotograf; pressa; matbuot internet va boshqalarni taqdim etadi.¹ Manbalardan kelayotgan axborot oqimidan to'g'ri foydalanib, o'zining rivojlanishi uchun kerakli bo'lgan axborotlarni o'rganish. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda barcha media-resurslarini tahlil qilish

¹ <https://uz.m.wikipedia.org>

muhum rol o'ynaydi. Xorijiy media-ta'limning tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalar o'zining o'qish jarayonida asosan internet, televideniya manbalaridan foydalanishadi. Jahon mediapedagogikasida medianing tarbiyaviy ijodiy usullaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Media-ta'lim usullari asosan keying muhum bosqichlarga bo'linadi. 1. Media-nazariyasi, uning tarixi, strukturasi hamda tili haqida bilim olish (o'qitish media-texnologiyasi); 2. Mediamatnlarni qabul qilishni rivojlantirish "o'qish, anglash, tasavvurni faollashtirish, xotirani rivojlantirish, fikrni turli usullarini rivojlantirish" (kritik, ijodiy, intuityv hamda obraz yaratish).

Natija va mulohazalar: Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi.² Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quvchi aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatalishi va uning foydali yoki zararli tomonlari haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarda axborotni tahlil qilish, axborotdagi asosiy habarni ajratish va boshqa bosqichlarida alohida e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, milliy qonunchiligidizda ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalanishning mexanizmlari mavjud. Xususan, "O'zbekiston Respublikasidagi yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risidagi" Qonunda yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etilishi, bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunda pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini

² <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

tahqirlovchi,bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqanishi belgilab berilgan. Milliy axborot makonimizga chegara qo'yib bo'lmaydi. Shunday ekan yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib,ular ma'naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, bolalarga mакtabgacha ta'lim jarayonida uning asoslарини interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondashgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu o'z navbatida,yoshlarning kelajakdagи fuqarolik pozitsiyasining yanada mustahkamlanishiga,jahonda yuz berayotgan voqeа-hodisalarni holis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017 -yil 7- fevraldagи “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategyasi to'g'risida”gi Prezident farmoni.
2. 2019-yilda aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yaxshilash maqsadida “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi Prezident Farmoni.
3. 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida”gi qonuni.
4. 2016-yilning 14-sentabrida qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonuni.
5. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
6. <https://uz.m.wikipedia>